O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI QIZIRIQ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

190800, Qiziriq tumani, Ibn-Sino ko`chasi, 13-uy, tel:0(376)3591339, fax: 0(376)3591575, qiziriq_t1@exat.uz

2021 - yil 30 - sentabr 75-8-113-Q/21 Qiziriq tuman hokimligi

Davlat o‘rmon fondi erlarida yong‘in xavfini oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida

2021 yilda Davlat o‘rmon fondi erlarida yong‘in kelib chiqishining hamda tabiatga va o‘simlik dunyosiga zarar etkazilishining oldini olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 22 noyabrdagi “Respublika o‘rmonlarini himoya qilish bo‘yicha ayrim me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-sonli qaroriga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan va Qiziriq davlat o‘rmon xo‘jaligining 2021 yil 19 martdagi 13-sonli xatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. 2021 yil yoz, kuz fasllarida Davlat o‘rmon fondi erlarida, chegara zonasi va mintaqasi, qo‘shni fermer xo‘jaliklari hamda fuqarolar yig‘inlari hududida joylashgan o‘rmonlarda tamaki mahsulotlari chekish, ov qilish hamda gulxan yoqish qat’iyan man qilinsin.

2. Qiziriq davlat o‘rmon xo‘jaligi bo‘limlarida yong‘inga qarshi kurash tadbirlari 1-ilovaga, favqulodda holatlarda yong‘inni o‘chirish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qiziriq davlat o‘rmon xo‘jaligi (X.Tilovov) Bog‘iston MFY, Yangixayot MFY, Yakkaterak MFY, Zarbdor MFYda yong‘in xavfini oldini olish bo‘yicha

barcha tadbirlarni o‘tkazishga shaxsan mas’ulligi belgilab qo‘yilsin.

4. Qiziriq davlat o‘rmon xo‘jaligi (X.Tilovov), tuman FVB (M.Qobulov), tuman tibbiyot birlashmasi (A.Noriev), “O‘ztelekom” AK Qiziriq tuman filiali (B.Nurkaev)lar MFY raislari birgalikda Davlat o‘rmon fondi erlarida yong‘in sodir bo‘lganda tezda kechiktirmasdan yong‘inni o‘chirish uchun etarli odamlarni jalb qilish va ularni asbob-uskunalar va oziq-ovqatlar bilan ta’minlash hamda tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish vazifalari topshirilsin.

5. Qiziriq davlat o‘rmon xo‘jaligi (X.Tilovov), tuman atrof muhitni va tabiatni muhofaza qilish inspektsiyasi (S.Qurbonazarov), Bog‘iston MFY, Yangixayot MFY, Yakkaterak MFY, Zarbdor MFY raislari o‘rmon xo‘jaligi er fondi erlariga yaqin joyda yashayotgan aholiga o‘rmon xo‘jaligi er fondi erlarida yong‘inni oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish hamda “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi qonunlarni buzgan shaxslarga nisbatan hujjatlarni rasmiylashtirib, tegishli organlarga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

6. Tuman hokimligi ahborot xizmati A.Bo‘riev mazkur qarorni www.qiziriq.uz. saytida e’lon qilinsin.

7.Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari R.Ishbaev va B.Jabborov zimmalariga yuklatilsin.

Hokim **Yusupov I. E.**

Қизирик туман ҳокимининг
2021 йил 30 сентябрдаги
75-8-113-Q/21-сон қарорига
1-илова

Қизирик давлат ўрмон хўжалиги давлат ўрмон фонди ерларида ёнғинга қарши курашиш чора-тадбирлари

№	Амалга ошириладиган ишлар	Бажариш муддати	Бажаришга масъул
1	1.Ўрмонларда ва ўрмон билан қопланган Давлат ўрмон фонди ерларида ёнғин хавфсизлигини таъминлаш учун шахсан жавобгарликни хис этиш, ёнғин бўлиши эҳимоли кучли даврда белгиланган ёнғин хавфсизлиги ишларини бажариш, Давлат ўрмон фондиерларида чиққан ёнғинни тезкорлик билан учириш ва бу тўғрисида Қизирик давлат ўрмон хўжалигига хабар қилиш	Мавсум давомида	Барча ўрмончилик бўлими ўрмонбегилари ва ишлабчиқариш участка бошлиқлари
2.	Ўт-улан билан қопланган ерларда. Қамишзор ва ўрмонзорлар яқинида,шамолли об-ҳавода гулхан ёқишни таъқиқлаш, ёниб турган нарсаларни ташлаш учун махсус жойлар ташкил қилиш.	Мавсум давомида	Бош ўрмонбеги, ўрмон инспектори, Барча ўрмончилик бўлими ўрмонбегилари ва ишлаб чиқариш участка бошлиқлари
3	Давлат ўрмон фонди ерларида ёнғин чиқиши хавфи бор ҳудудларда сув идишлари сув тўлдирилган ҳолда (кичик ва ката ҳажмли сув идишлари) жойлаштириш	Мавсум давомида	Барча ўрмончилик бўлими ўрмонбегилари ва ишлаб чиқариш участка бошлиқлари
4	Давлат ўрмон фонди ерларида ёнғин чиққан ҳолда ёнғин чиққан жойда кўнгилли ёнғин ўчириш бўлинмаларини,белгиланган ёнғин учириш ишчи кучларини ўз вақтида етказиш, техникалар билан таъминлашни тўғри ва аниқ ташкил қилиш.	Мавсум давомида	Бош ўрмонбеги, мухандис-механик
5	Чорва моллари боқиладиган, овқилинадиган, беда ўриладиган ўрмонларда, болалар оромгоҳларида, дам олишзоналарида, ёнғин учириш қуролларини бўлишини назорат қилиш, Давлат ўрмон фонди ерларига яқин ерларда ва унга олиб борувчи йўллар ёқасига оловдан эҳтиётлик билан фойдаланишга чақирувчи ёнғин чиқиш хавфидан огоҳлантирувчи белгиларни қўйиш.	Мавсум давомида	Хўжалик мудири, бўлим ўрмонбегилари ва ўрмончилари
6	Ёнғин хавфсизлиги қоидаларини бузувчиларни тезкорлик билан аниқлаш, уларни устидан зудлик билан тегишли хужжатларни тузиб, келтирилган зарарни ундириб олиш чораларини кўриш, ёнғинга қарши кураш мақсадида тезкорлик билан ҳаракат қилувчи гуруҳ тузиш, уни ҳаракат йўналишини белгилаш ва шумавзуда семинар ташкилқилиш.	Мавсум давомида	Бош ўрмонбеги, ўрмон инспектори, Барча ўрмончилик бўлими ўрмон бегилари ва ишлаб чиқариш участка бошлиқлари, бўлим ўрмончилари

Қизирик туман ҳокимининг
2021 йил 30 сентябрдаги
75-8-113-Q/21-сон қарорига
2-илова

2021 йилда Қизирик давлат ўрмон хўжалигининг ўрмон бўлимларида фавқулодда ҳолатларда ёнғинини ўчириш

Р Е Ж А С И

Т/р	Қизирик тумани	Жойлашган аҳоли		Ёнғинга қарши ўчириш асбоблари			Ўрмон бўлимлари номи	Техникалар сони	Шундан сув ташиш машинаси	Керакли нарсалар юбориладиган жойлар	Тиббий ёрдам кўрсатилишини ташкил этишда жавобгар шахс	Ёнғин бўладиган жойларда алоқани тиклаш бўйича жавобгар шахс	Ўрмон бўлими бошлиқларининг	Ёнғинни ўчириш бўйича жавобгар шахс	Техника ва ёнғин ўчириш асбоб-ускуналарини олиш жойи
		Жами	Шундан ёнғин ўчиришга қатнашади	Болта	Арра	Белкурак									
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
1	Боғистон МФЙ	3356	100	10	15	75	Боғистон ў/б	1	1	Фуқароларйиғинлари, Фермер хўжаликлари	Туман Тиббиётбирлашмаси (А.Нориев)	“Ўзтелеком” АК Қизирик туман филиал (Б.Нуркаев)	Лавозимига кура	Ўрмон инспекторлари	Ўрмонхўжалиги, Маҳалла фуқаролар йиғинлари, ҳамда фермер хўжаликлари омборлари
2	Яккатерак МФЙ	4664	100	10	10	80	Яккатерак ў/б	1	1						
3	Янгихаёт МФЙ	4035	100	10	15	75	Марказ ў/б	1	1						
4	Зарбдор МФЙ	4448	150	25	25	100	Зарбдор ў/б	1	1						

Қизирик туман ҳокимининг
2021 йил 30 сентябрдаги
75-8-113-Q/21-сон қарорига
3-илова

2021 йилда Қизирик давлат ўрмон хўжалигининг ўрмон бўлимларида фавқулодда ҳолатларда ёнғинини ўчириш

Р Е Ж А С И

Т/р	Қизирик тумани	Жойлашган аҳоли		Ёнғинга қарши ўчириш асбоблари			Ўрмон бўлимлари номи	Техникалар сони	Шундан сув ташиш машинаси	Керакли нарсалар юбориладиган жойлар	Тиббий ёрдам кўрсатилишини ташкил этишда жавобгар шахс	Ёнғин бўладиган жойларда алоқани тиклаш бўйича жавобгар шахс	Ўрмон бўлими бошлиқларининг	Ёнғинни ўчириш бўйича жавобгар шахс	Техника ва ёнғин ўчириш асбоб-ускуналарини олиш жойи
		Жами	Шундан ёнғин ўчиришга қатнашади	Болта	Арра	Белкурак									
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
1	Боғистон МФЙ	3356	100	10	15	75	Боғистон ў/б	1	1	Фуқароларйиғинлари, Фермер хўжаликлари	Туман Тиббиётбирлашмаси (А.Нориев)	“Ўзтелеком” АК Қизирик туман филиал (Б.Нуркаев)	Лавозимига кура	Ўрмон инспекторлари	Ўрмонхўжалиги, Маҳалла фуқаролар йиғинлари, ҳамда фермер хўжаликлари омборлари
2	Яккатерак МФЙ	4664	100	10	10	80	Яккатерак ў/б	1	1						
3	Янгихаёт МФЙ	4035	100	10	15	75	Марказ ў/б	1	1						
4	Зарбдор МФЙ	4448	150	25	25	100	Зарбдор ў/б	1	1						